

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR  
INSTITUTI**

**XALILOVA ZARINA FARXODOVNA**

**CHIRCHIQ DARYOSI HAVZASI TUPROQLARINING AGROFIZIKAVIY  
XOSSALARI VA ULARNI YAXSHILASH YO‘LLARI**

**06.01.03 – «Agrotuproqshunoslik va agrofizika»**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2025**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
сельскохозяйственных наукам**

**Content of dissertation abstract of philosophy (PhD) of  
agricultural science**

**Xalilova Zarina Farxodovna**

Chirchiq daryosi havzasi tuproqlarining agrofizikaviy xossalari va ularni yaxshilash yo‘llari ..... 3

**Халилова Зарина Фарходовна**

Агрофизические свойства почв бассейна реки Чирчик и способы их улучшения ..... 21

**Xalilova Zarina Farxodovna**

Agrophysical properties of soils of the Chirchik river basin and ways to improve them ..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 44

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR  
INSTITUTI**

**XALILOVA ZARINA FARXODOVNA**

**CHIRCHIQ DARYOSI HAVZASI TUPROQLARINING AGROFIZIKAVIY  
XOSSALARI VA ULARNI YAXSHILASH YO‘LLARI**

**06.01.03 – «Agrotuproqshunoslik va agrofizika»**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Qx696 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining veb-sahifasida (www.tdau.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz.) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kurvantayev Raxmontoy**  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Mazirov Mixail Arnoldovich**  
biologiya fanlari doktori, professor  
K.A.Timiryazev nomidagi MQXA-Rossiya  
davlat agrar universiteti

**Namozov Normamat Choriyevich**  
qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori(PhD), dotsent  
Toshkent davlat agrar universiteti

**Yetakchi tashkilot:**

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 raqamli Ilmiy kengashning « 11 » 03 2025-yil soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100179, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qamarniso ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 246-09-50; faks: (99871) 246-76-00; e-mail: info@soil.uz.

Dissertatsiya bilan Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (82 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100179, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qamarniso ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 246-09-50; faks: (99871) 246-76-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 24 » 02 kuni tarqatildi.

(2025-yil « 24 » 02 dagi 4 raqamli reestr bayonnomasi)



**Sh.M.Bobomurodov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, b.f.d., katta ilmiy xodim

**J.M.Ko'ziyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmij kotibi, q.x.f.d., katta ilmiy xodim

**N.Yu.Abduraxmonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d.,  
professor

## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda «dunyoda irrigatsiya va suv eroziyasi ta'sirida buzilgan yerlar 10,9 mln ga (56%), shamol ta'sirida yemirilgan yerlar 5,5 mln ga (28%), kimyoviy degradatsiyaga (gumus va biogen moddalar kamaygan, sho'rlangan, ifloslangan va boshqalar) uchragan yerlar 2,4 mln ga (12%), fizik degradatsiyaga uchragan (zichlashgan, botqoqlashgan, cho'kkan va boshqalar) yerlar 0,8 mln/ga (4%) bo'lib, jami maydon 19,6 mln gektarni tashkil etadi»<sup>1</sup>. Shu sababli dunyo mamlakatlarida tabiiy va antropogen omillar ta'sirida degradatsiyaga uchragan yer maydonlarini unumdorligini saqlash, oshirish va meliorativ holatini yaxshilash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Dunyo bo'yicha tuproqlarning eroziya, sho'rlanish, botqoqlashish, ifloslanish, gumus va oziqa moddalarining kamayishi, zichlashishi kabi salbiy jarayonlar ta'sirida degradatsiyalanishi va bu jarayonlarning qishloq xo'jaligiga va atrof-muhitga yetkazayotgan zararini o'rganish, ularni oldini olish va salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha bir qator ustivor yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, tuproqlarning suv va irrigatsiya eroziyasi ta'sirida tuproqlarning fizik-kimyoviy, suv-fizik xossalarini aniqlash, tog' va tog' oldi yerlardan samarali foydalanishga doir ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizning sug'oriladigan va lalmikor tuproqlarning hozirgi holatini aniqlash, turli dehqonchilik tizimlari ta'sirida tuproqlarning suv-fizik, fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish asosida tuproqlarning unumdorligini saqlash, qayta tiklash, oshirish va ularni muhofaza qilish hamda ulardan unumli va samarali foydalanish bo'yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida «...tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash tizimini takomillashtirish»<sup>2</sup> bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shuning uchun ham Chirchiq daryosi havzasi tuproqlarining umumiy fizikaviy, suv-fizikaviy, fizik-mexanik, agrokimyoviy holatini aniqlash, tuproqlardan ishlab chiqarishda samarali, oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi «Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-277-son, 2022-yil 25-martdagi «Paxta maydonlarida tuproq unumdorligini va hosildorlikni oshirish, sug'orishning yangi texnologiyalarini joriy etishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-179-son, 2024-yil 13-fevraldagi «Qishloq xo'jaligi yerlari degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproqning gumus miqdori va unumdorligini oshirishni qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha

---

<sup>1</sup> <https://www.fao.org>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5853-son Farmoni

chora-tadbirlari to'g'risida»<sup>3</sup>gi PQ-71-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tog' oldi tuproqlarining kimyoviy, fizik-kimyoviy, biologik xossalari, gumifikatsiya jarayonlari, ularning ekologik holati va muhofazasi bo'yicha xorijlik olimlar E.V.Sheyn, M.A.Mazirov, P.M.Sapojnikov, B.F.Xitrov, A.M.Prokashev, L.X.Sangandjinova, Chun-Chin-Tsui, D.Mandal, Marika Makkonen, Muhammad Ajami, Marek Drevnik hamda Respublika olimlaridan M.U.Umarov, X.M.Maxsudov, A.A.Xonazarov, Q.Mirzajanov, J.Sattorov, Sh.Nurmatov, L.Tursunov, I.Turapov, M.Tashqo'ziyev, L.A.Gafurova, R.Kurvantaev, R.Qo'ziev, S.Abdullaev, X.Tursunov, G.Yuldashev, Sh.Xoliqulov, Sh.M.Bobomurodov, N.Yu.Abduraxmonov, M.Isag'aliyev, G.T.Djalilova, G.M.Nabiyeva, I.U.Urozboev, Z.A.Jabborov, N.B.Raupova, N.I.Shadiyeva, G.N.Parpiyev, A.J.Bairov, A.U.Axmedov, A.A.Musurmonov va boshqalar tomonidan olib borilgan. Lekin, Chirchiq havzasi tog' oldi tuproqlarining agrofizikaviy holati, tuproq xossalari tabiiy omillar ta'sirida o'zgarishini aniqlash, ulardan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining EB-A-QX-2018-236 «Chirchiq-Ohangaron havzasi tuproqlarining agrofizikaviy holatini o'rganish va ularni baholash» mavzusidagi amaliy (2018-2020-yillarda) loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Chirchiq daryosi havzasi tuproqlarining hozirgi agrofizikaviy xossalari aniqlash asosida tuproqlarni unumdorligini yaxshilashga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

o'rganilayotgan tuproqlarining umumiy fizikaviy, suv-fizikaviy, fizik-mexanik, agrokimyoviy holatini aniqlash;

tuproq agrofizikaviy maqbul kattaliklari va chegaralovchi (zichligi, qattiqligi, va suv xossalari) omillarni aniqlash;

tuproqlardan ishlab chiqarishda unumli va samarali foydalanish maqsadida geoaxborot tizimi asosida tayanch massivlari tuproqlarning granulometrik tarkibini 1:10000 masshtabli xaritalarini tuzish;

tuproqlar agrofizikaviy holatini maqbul saqlash va yaxshilashga qaratilgan agrotexnik chora-tadbirlar qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

---

<sup>3</sup> <https://www.lex.uz/pdfs/6798455>

**Tadqiqot predmeti** sug'oriladigan, lalmi va qo'riq tuproq tiplari, morfologiyasi, kimyoviy, granulometrik va makroagregat tarkibi, umumiy fizik, suv, fizik-mexanik xossalari, struktura holati, tuproq xaritalari va GAT texnologiyalari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlar dala, analitik laboratoriya va kameral sharoitlarda olib borildi. Bunda «Руководство к проведению химических и агрофизических анализов почв при мониторинге земель», «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari» hamda tuproq xaritanomlarini yaratishda ArcGIS dasturiy ta'minotidan foydalanildi, olingan ma'lumotlarga matematik-statistik tahlillari B.A.Dospexovning «Методика полевого опыта» qo'llanmasi va Microsoft Excel dasturida dispersion ishlov berildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Chirchiq havzasi sug'oriladigan (tog' jigarrang, to'q tusli, tipik bo'z, bo'z-o'tloqi, o'tloqi) tuproqlarining agrofizikaviy xossasiga antropogen omillar ta'siri (zichlashgan, g'ovakligi kamaygan, qattiqligini oshgan, mayda zarrachalar va oziqa moddalarning pastki qatlamlarga yuvilganligi) aniqlangan;

Chirchiq havzasi o'tloqi va bo'z-o'tloqi tuproqlardan to'q tusli bo'z, tog' jigarrang tuproqlar tomon hajm og'irligi kamayib borishi va aksincha, solishtirma og'irligi esa to'q tusli bo'z, tog' jigarrangdan ( $2,61 \text{ g/sm}^3$ ) o'tloqi va bo'z-o'tloqi tuproqlarga qarab ( $2,72 \text{ g/sm}^3$ ) ortib borishi isbotlangan;

Chirchiq havzasida tarqalgan tuproq tiplarida maksimal gigroskopik va so'lish namligi, dala, to'liq, kapillyar nam sig'mlari, tuproqning genetik qatlamlari bo'yicha keng miqyosda il va tuz miqdorlari, suv o'tkazuvchanligi bo'yicha guruhlariga ajratilgan hamda tuproq-iqlim sharoiti va o'simliklarning o'sish davrini hisobga olgan holda sug'orish meyorlari aniqlangan;

sug'oriladigan tuproqlarining granulometrik tarkibini yengillashib borishi, mayda zarrachali agregatlar miqdorini oshishi, tog' jigarrang, to'q tusli tipik bo'z tuproq agregatlarining chidamliligi yuqori bo'lishi, daryo yotqiziqlarida hosil bo'lgan o'tloqi tuproqlarda kichik kattalikdagi zarrachalardan iborat mikrostrukturaligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tayanch massivlari tuproqlarining xossa-xususiyatlariga bog'liq holda GAT texnologiyasi asosida 1:10000 miqyosli granulometrik tarkib xaritalari tuzilgan va amaliyotga joriy qilingan;

Chirchiq havzasi tuproqlarini agrofizikaviy xossalarini yaxshilash va unumdorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyanoma ishlab chiqilgan;

Chirchiq daryosi havzasida tarqalgan tuproqlardagi antropogen omillar ta'sirida sodir bo'layotgan salbiy jarayonlar, tuproq zichligi va qattiqligini ortib borishi, struktura holatini buzilishi, nam yetishmovchiligi bo'yicha, kam ishlov berish, chuqur yumshatish, granulometrik tarkib asosida sug'orish, o'g'itlash va agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish tavsiya qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqotda dala, laboratoriya, kameral hamda oftografik usullaridan foydalanilganligi, tadqiqotlar sohada umumqabul qilingan standart uslubiy qo'llanmalardan foydalangan holda olib borilganligi,

natijalarning nazariy va amaliy jihatdan bir-biriga mos kelishi, natijalarning matematik-statistik tahlil qilinganligi, xulosa va tavsiyalarning ilmiy jihatdan asoslanganligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan etirof etilgan nufuzli xorijiy va respublika ilmiy jurnallarning, davriy nashrlarida chop etilganligi, natijalarning amaliyotga joriy qilingani ishonchligini ko‘rsatadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, antropogen omillar ta‘sirida Chirchiq havzasi tuproqlarining agrofizikaviy xossalari: zichligini yuqoriligi, ularning g‘ovakligining kamayganligi, qattiqligining oshganligi, tuproqning zarrachalarini pastki qatlamlariga yuvilib ketishining sabablari, dala, umumiy va kapillyar namlik sig‘imi, tuproqning genetik qatlamlari bo‘yicha taqsimlanishi, suv o‘tkazuvchanligi guruhlarga bo‘linishi va sug‘orish meyorlari tuproq-iqlim sharoitlari va o‘simliklarning vegetatsiya davrini hisobga olgan holda ilmiy asoslangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, tuzilgan 1:10000 miqyosli tuproq granulometrik tarkib xaritasi va tavsiyanoma havza tuproqlaridan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish, fizikaviy va kimyoviy xossalarni yaxshilashda, qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori hosil olishda, sug‘orish meyorini va tuproqqa ishlov berishda, o‘g‘itlashda tabaqalashtirib qo‘llashga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Chirchiq daryosi havzasi tuproqlarining agrofizikaviy xossalari va ularni yaxshilash yo‘llari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Chirchiq daryosi havzasi sug‘oriladigan va lalmi tuproqlarining agrofizikaviy holati va ularni yaxshilashga qaratilgan tavsiyalar fermer xo‘jaliklarida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma‘lumotnomasi 2023-yil 2-avgust 04/29-06/775-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Chirchiq havzasining turli tuproq-iqlim sharoitlarida qishloq xo‘jalik ekinlarini joylashtirish va ularni parvarishlash uchun o‘tkaziladigan agrotexnik tadbirlarni ishlab chiqishda qo‘llanma sifatida xizmat qilgan;

GAT texnologiyasi asosida Parkent tumani «Zarkent», «Gulbog», Chinoz tumani Y.Oxunboboyev nomli massiv, Zangiota tumani «Ittifoq» massivlarining M: 1:10000 miqyosli granulometrik tarkibi xaritalari amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi 2023-yil 2-avgust 04/29-06/775-son ma‘lumotnomasi). Natijada, kartografik materiallar yer maydonlarini tabaqalashtirib sug‘orish, o‘g‘itlash, tuproqqa ilmiy asoslangan holda ishlov berish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari jami 6 ta, shundan, 4 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining elon qilinganligi.** Dissertatsiya va mavzu bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, 1 ta tavsiyanoma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy natijalarini

chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, 2 ta respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotni ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinganligi to‘g‘risidagi hamda nashr etilgan ishlar va dissertatsiyani tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Chirchiq havzasi tuproqlarini o‘rganishning qisqacha tarixi va qo‘yilgan muammoning yechimi**» deb nomlangan birinchi bobi ikki qismga ajratilgan bo‘lib, bunda, xorij va respublikamiz sharoitida mavzu bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili keltirilgan. Mazkur bobda tuproqlarining degradatsiyaga uchrash omillari, kelib chiqish sabablari, ularni oldini olishda zamonaviy GAT texnologiyalarini qo‘llagan holda samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish yo‘llarini o‘rganishga oid ilmiy-izlanishlar bayon etilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, tuproqning morfogenetik xususiyatlari, ishlab chiqarish qobiliyati va ularning intensiv dehqonchilik tizimida o‘zgarishi, hozirgacha eng kam o‘rganilgan yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Chirchiq daryosi havzasi tuproqlari joylashgan hudud respublikada o‘zining murakkabligi bilan farqlanadi. Bu hududda doimiy dehqonchilik yuritish uchun tuproqlarini batafsil o‘rganishni, ularning ishlab chiqarish qobiliyatini oshirishda tuproqlarni o‘ziga xosligini hisobga olishni va aniq agrotexnik tadbirlarni ishlab chiqishni talab etadi. Chirchiq havzasi tuproqlariga keyingi yillarda agrofizikaviy xossalari etarlicha e‘tibor berilmaslik, organik o‘g‘itlardan yetarlicha foydalanmaslik, eroziya jarayonlarini oldini olmasligi natijasida ushbu yerlarda degradasiya jarayonlarini jadallashishi va tuproq unumdorligi pasayib, ekinlar hosildorligi kamayganligini kuzatish mumkin. Chirchiq havzasida keng tarqalgan degradasiya ta’sirida bo‘lgan tog‘ va tog‘oldi tuproqlarini agrofizikaviy xossalari asosida GAT texnologiyalarini qo‘llagan holda granulometrik tarkib xaritasini tuzish muhim hisoblanadi. Shu sababli mazkur dissertatsiya ishida tuproqning tayanch massivlari misolida karta sxemalari tuzilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot olib borilgan Chirchiq havzasi hududlarini tabiiy sharoitlari, tadqiqot obyekti va uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obektlarning geografik joylanishi, geomorfologiyasi, tuproq hosil qiluvchi ona jinslari, iqlimi, reliefi, o‘simliklar va hayvonot dunyosi, tadqiqot obyektlari, uslublari, o‘rganilgan hududda tarqalgan asosiy tuproqlar tavsifi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Chirchiq havzasi tabiati ko'p jihatdan uning geografik o'rni, yon-atrofi yer yuzasining tuzilishi bilan bog'liq. Havza G'arbiy Tyanshanning Qorjontov, Ugom, Piskom, Ko'ksuv va Chotqol tizmalari orasidan oqib chiqadigan Chirchiq daryosi vodiysining o'rta qismida, daryoning o'ng tomonidagi past-baland tog'oldi tekisligida joylashgan. Bu hudud o'zining tabiiy geografik sharoitiga ko'ra, shimoliy yarimshardagi subtropik cho'llar mintaqasining Turon tabiiy geografik provinsiyasi tarkibiga kiradi.


Toshkent viloyati respublikamizning shimoliy-sharqiy tog' oldi va tog'li mintaqalarida joylashgan bo'lib, umumiy maydoni 1513,2 ming ga, shundan, sug'orib dehqonchilik qilinadigan yerlarning umumiy maydoni 329,1 ga ni tashkil qiladi. Havza Chirchiq daryosining IV, III, II va I qayir usti terrasalarida joylashgan. Relyefi, eroziyalanganligi va boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha Toshkent vohasiga xosdir. Bu havza kichik baland-pastliklarga ega. Hududning janubiy-g'arbiy qismini egallagan bo'lib, nisbiy balandligi kam o'zgaruvchi keng to'lqinsimon maydondan iborat. Tepaliklar ancha cho'ziq bo'lib, g'arbga tomon umumiy nishablikka ega. Do'ngliklarda-tepaliklar relyefning eng muhim elementlardan hisoblanadi. Turli tomonga tarmoqlangan yonbag'irlar 150-200 metrgacha cho'zilib, ularning nishabligi 1-3<sup>0</sup>C ba'zi joylarda 5-8<sup>0</sup>C gradusni tashkil etadi.

Dissertatsiyaning «**Chirchiq havzasida tarqalgan tuproqlarning kimyoviy tarkibi**» deb nomlangan uchinchi bob, ikkita qismdan iborat bo'lib, uning **3.1-§ «Tuproqlarning agrokimyoviy tarkibi»** deb nomlangan birinchi bo'limida Chirchiq havzasida tarqalgan lalmi to'q tusli bo'z, sug'oriladigan to'q tusli bo'z, lalmi tipik bo'z, sug'oriladigan tipik bo'z, bo'z-o'tloqi, o'tloqi allyuvial tuproqlar tarkibidagi gumus, yalpi va harakatchan azot, fosfor, kaliy miqdorlari ifodalangan.

Chirchiq havzasi tog' oldi tekisliklarida to'q tusli va tipik bo'z va ularni yarimgidromorf va gidromorf qatorlarida bo'z-o'tloqi, o'tloqi tuproqlari rivojlangan.

Lalmi to'q tusli tuproqlarni haydov qatlamlaridagi gumus miqdori 0,741-0,996% va 1,0 foizdan yuqori bo'lib 1,067-1,510 foizni tashkil etdi. Umumiy azot miqdori gumusga mos holda 0,06-0,140 %, pastki qatlamlarda unung kamayishi kuzatildi. Umumiy fosfor miqdori tuproqlarni haydov qatlamida 0,176 foizdan 0,270 foizgacha tebrandi, umumiy kaliy miqdori 0,942-1,398 foizdan 0,420-1,236 foizgacha kamaydi. Tuproqlar harakatchan fosfor bilan juda kam, almashinuvchi kaliy bilan esa kam va o'rtacha ta'minlanganligi kuzatildi.

Tadqiqotlarda o'rganilgan geomorfologik rayonda tarqalgan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda karbonatlar, butun tuproq profilida g'uddalar shaklida 1,5 m chuqurlikkacha uchraydi va ular kesma bo'ylab tekis tarqalgan bo'lib, 7,5- 9,2 foizni tashkil etdi. Haydalma qatlamdagi gumus miqdori tuproqni yuvilganlik darajasini va sug'orish davriyligiga bog'liq holda keng doirada tebranib 1,286-0,684% oralig'ida aniqlandi. Tuproqdagi azotning miqdori 0,067%, kesmaning pastki qatlamlariga qarab gumus miqdori 0,056-0,034 foizgacha kamaydi.




**1-rasm. Chirchiq havzasidagi tuproqlarda oziqa moddalar miqdori**

Dissertatsiyaning 3.2-§. «Chirchiq havzasida tarqalgan tuproqlardagi suvda oson eruvchi tuzlar miqdori va singdirish sig'implari» deb nomlangan bo'limida lalmi va sug'oriladigan to'q tusli bo'z tuproqlarning sindirish asoslari yig'indisi tuproq kesmasi bo'yicha 16-19 va 13-15-mg-ekvni, katonlar yig'indisining 94-95 foizni ishqoriy yer metallari-kalsiy va magniy tashkil etdi.

Sugʻoriladigan tipik boʻz tuproqlarda singdirish sigʻimi 100 g tuproqda 10-12 mg-ekv. ga teng. Singdirilgan asoslar tarkibida kalsiy ustunlik qildi, uning miqdori kationlar yigʻindisidan 58-64 foizni tashkil etdi, magniy nisbatan ancha kam (26-34%). Oʻrganilgan tipik boʻz tuproqlar asosan shoʻrlanmagan, ayrim massivlarda kuchsiz shoʻrlangan ayirmalardan iborat, suvda oson eruvchi tuzlarning umumiy miqdori Zangiota tumani «Ittifoq» massivi tuprogʻida 0,215-0,405 foizgacha, xlor ioni miqdori 0,011-0,021 foizni tashkil etdi. Shoʻrlanish ximizmi (tipi) sulfatli va xlorid-sulfatli.

Dissertatsiyaning «**Chirchiq havzasi tuproqlarining agrofizikaviy xossalari**» deb nomlangan toʻrtinchi bobining 4.1-§. «Geoaxborot texnologiyalari yordamida tuproqlarning granulometrik tarkibi xaritasini tuzish va mikroagregat tarkibi» deb nomlangan boʻlimida Chirchiq havzasida keng tarqalgan lalmi va sugʻoriladigan tuproqlarning mexanik tarkibi boʻyicha xaritanomalarni tuzish katta amaliy ahamiyatga ega ekanligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar keltirilgan.

Parkent tumani «Gulbogʻ» massivi sugʻoriladigan tipik boʻz tuproqlari yengil va oʻrta qumoqli boʻlib, kesma boʻyicha fizik loyning miqdori 23,0-33,9 % atrofida tebrandi, yirik va oʻrta chang zarrachalari miqdori tuproq kesmasida eng koʻp miqdorlarni tashkil etib mos ravishda 36,4-40,8 va 25,4-27,8 foiz (2-rasm),



**2-rasm. Parkent tumani «Gulbogʻ» massivi sugʻoriladigan tipik boʻz tuproqlarining 1:10000 masshtabli granulometrik tarkibi xaritasi**

Parkent tumani «Zarkent» massivining lalmi tipik boʻz tuproqning granulometrik tarkibi jihatidan oʻrta qumoqli boʻlib, kesmaning oʻrta qismida biroz ogʻirlashish qonuniyati sezildi, fizik loyning miqdori kesma boʻyicha 42,0 dan 45,6 gacha oshganligini koʻrish mumkin. Har ikkala tuproq tipida yirik (0,05-0,01 mm) va oʻrta chang (0,01-0,005 mm) zarrachalar miqdorining koʻpligi bilan ifodalandi, mos ravishda 21,5-38,9 va 19,8-26,3 foizni tashkil etdi.

Zangiota tumani «Ittifoq» massivi sugʻoriladigan tipik boʻz tuproqlarining granulometrik tarkibi jihatidan oʻrta qumoqli boʻlib, fizik loyning miqdori 31,3 oraligʻida 37,5 gacha tebrandi. Yirik va oʻrta chang zarrachalar miqdori mos ravishda 25,4-31,5% va 15,0-26,2 foizni tashkil etdi.

Qibray tumani «Qibray» massivida tarqalgan sugʻoriladigan boʻz-oʻtloqi tuproqlar asosan oʻrta qumoqli boʻlib, fizik loyning miqdori kesma boʻylab 35,4 dan 40,1% gacha oʻzgarib, kesma boʻyicha qariyb bir tekisda taqsimlandi. Mayda qum zarrachalari miqdori 20,4-28,4 % atrofida boʻlib, yirik qum zarrachalarining miqdori 14,1-28,4 % atrofida tebrandi.

Chinoz tumani Y.Oxunboboyev nomli massiv sugʻoriladigan oʻtloqi-allyuvial tuproqlari bir metr chuqurlikkacha oʻrta qumoqli boʻlib, fizik loyning miqdori 34,6-38,6 foizni tashkil qilgan holda bir metrdan pastki qatlama qarab yengillashib fizik loy miqdori 21,8-23,7 foizni tashkil etdi.

Tuproqlarning mikroagregat tarkibi tuproq unumdorligini belgilashda muhim oʻrin tutadi. Ayniqsa, turli darajada eroziyaga uchragan va sugʻoriladigan tuproqlarda agregatlarning hosil boʻlishi qishloq xoʻjalik ekinlaridan moʻl hosil olishda muhim ahamiyatga ega. Chunki, sugʻorish va uning natijasida sodir boʻladigan eroziyalanish agregatlarni maʼlum darajada parchalanishiga olib keldi.

Chirchiq havzasi tuproqlarining yuqori tabiiy unumdorlik sabablari, bu tuproqlarda 0,05-0,01 mm chang zarrachalarning va yuqori miqdorda 0,01 mm dan yirik kattalikdagi chidamli mikrostruktura elementlari miqdorini koʻpligi eng yaxshi kapillyar gʻovaklik hosil boʻlishini, nam sigʻimini koʻp va suv berish qobiliyatini yuqori boʻlishini taʼminlaydi. Sugʻorish hamda ishlov berish natijasida agregatlarni maʼlum darajada parchalangani kuzatildi. Masalan, lalmi tipik boʻz tuproqlarda jami haqiqiy agregatlar kesma qatlamlari boʻyicha 21-29 foizni tashkil qilsa, sugʻoriladigan boʻz-oʻtloqi tuproqda 12-27 foizni tashkil qiladi.

Chirchiq havzasida tarqalgan tuproqlarining granulometrik tarkibi birmuncha ogʻir boʻlib, mikroagregatlar miqdori esa koʻp hamda parchalanish koeffitsienti choʻl tuproqlariga nisbatan past. Chirchiq havzasi tuproqlarining granulometrik tarkibi ularning hosil boʻlishini belgilaydi va dehqonchilikda foydalanishi uchun ishlab chiqilgan agrotexnik tadbirlar asosiy omil hisoblanadi va uni hisobga olish shart.

Chirchiq daryosi havzasi tuproqlarining granulometrik tarkibini ifodalovchi oʻrtacha statistik tahliliy maʼlumotlarida oʻrtacha xatolik - 0,826 foizni, oʻrtacha nisbiy xatolik - 2,035 foizni tashkil egan.

Dissertatsiyaning **4.2-§. «Chirchiq havzasi tuproqlarining umumiy fizikaviy xossalari»** deb nomlangan boʻlimida «Solishtirma massa» (SM) Chirchiq havzasi tuproqlarining hamma geomorfologik rayonlar boʻyicha solishtirma massa 2,52 dan 2,71 g/sm<sup>3</sup> gacha oʻzgarib turdi (1-jadval). Eng kam solishtirma massa (2,52-2,59 g/sm<sup>3</sup>) Zangiota tumanining «Ittifoq» massivi sugʻoriladigan tipik boʻz tuproqlari va Chinoz tumani Oxunboboyev nomli massiv sugʻoriladigan oʻtloqi tuproqlarining pastki qatlamlarida kuzatildi. Eng yuqori koʻrsatkich toʻq tusli boʻz tuproqlarda 2,67-2,72 g/sm<sup>3</sup> ni tashkil etdi. Buni sababi shundaki, tuproqlar granulometrik tarkibi boʻyicha bir xil boʻlsa-da, minerologik tarkibiga koʻra birmuncha farqlanadi.

«Hajm massasi» (HM) boʻyicha tadqiqot oʻtkazilgan tuproqlar turli-tuman boʻlib, tumanlar oʻrtasida keskin farq sezilmaydi (1-jadval). Olimlar tomonidan oʻrganilgan togʻ oldi tipik va oʻtloqi va choʻl hududining tuproqlari uchun maqbul zichlik 1,2-1,4 g/sm<sup>3</sup> va kritik zichlik 1,5-1,6 g/sm<sup>3</sup> ni tashkil etgan. Olingan

ma'lumotlar ko'rsatishicha, maqbul ko'rsatkichga yaqin hajm og'irlik Parkent va Zangiota tumanlari «Gulbog'» va «Ittifoq» massivi sug'oriladigan tipik bo'z (1,33-1,38 va 1,15-1,32 g/sm<sup>3</sup>), Qibray tumani «Qibray» massivi sug'oriladigan bo'z-o'tloqi (1,22-1,33 g/sm<sup>3</sup>) tuproqlarida hosil bo'lgan bo'lsa, Chinoz tumani Oxunboboyev nomli massiv sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarining haydov va haydov ostki qatlamida zichlik 1,42-1,47 g/sm<sup>3</sup> ni tashkil qildi. Lalmi to'q tusli bo'z tuproqlarini haydov ostki qatlamining zichlashishi tuproqqa ishlov berish natijasida vujudga kelgan. Tuproq haydov qatlamining zichlashish qonuniyatlari barcha tayanch massivlari sug'oriladigan tuproqlarda ham kuzatiladi, lekin maqbul chegara zichligidan yuqori bo'lgan qatlamlarda 1,51-1,54 g/sm<sup>3</sup> gachaligi aniqlandi.

1-jadval

### Chirchiq havzasi tuproqlarining umumiy fizikaviy xossalari

Kesma №	Kesma chuqurligi, sm	SM, g/sm <sup>3</sup>	HM, g/sm <sup>3</sup>	Umumiy g'ovakligi, %	Kesma №	Kesma chuqurligi, sm	SM, g/sm <sup>3</sup>	HM, g/sm <sup>3</sup>	Umumiy g'ovakligi, %
Parkent tumani «Zarkent» massivi lalmi to'q tusli bo'z tuproq					Parkent tumani «Gulbog'» massivi sug'oriladigan tipik bo'z tuproq				
53	0-30	2,72	1,22	55	45	0-27	2,66	1,24	53
	30-45	2,68	1,54	42		27-46	2,66	1,36	49
	45-87	2,69	1,32	51		46-77	2,67	1,33	50
	87-110	2,67	1,33	50		77-110	2,67	1,37	49
	110-152	2,66	1,29	51		110-157	2,67	1,37	49
Qibray tumani «Qibray» massivi sug'oriladigan bo'z-o'tloqi					Chinoz tumani Y.Oxunboboyev nomli massiv sug'oriladigan o'tloqi tuproq				
9	0-28	2,62	1,27	51	10	0-43	2,61	1,42	46
	28-44	2,63	1,33	49		43-60	2,60	1,47	43
	44-71	2,64	1,27	52		60-110	2,58	1,37	47
	71-106	2,62	1,24	53		110-155	2,55	1,34	47
	106-143	2,64	1,22	54		155-200	2,52	1,28	49

Sug'orish davriyligi va turli yotqiziqalarda tarkib topganligidan qat'iy nazar og'ir granulometrik tarkibli tuproqlarda haydov ostki qatlamining zichlanishi kuchli bo'lishi aniqlandi. Ayrim holatlarda bu zichlanish kritik zichlik ko'rsatkichlaridan ham yuqori. Shu bilan birga kuchli zichlanish tuproq kesmalarining faqat yuqori qatlamlarida uchrashi qayd etildi. Haydov qatlami nisbatan yumshoq, haydov osti qatlami zich tuzilishi bilan tavsiflandi.

«Umumiy g'ovaklik» (UG') tuproqlarning umumiy g'ovakligi tumanlar geomorfologik rayonlar va genetik qatlamlari bo'yicha keng miqyosda o'zgaradi. Bu o'zgarish kesmalar bo'yicha ham kuzatildi. Tuproqlarning umumiy g'ovakligi zichligi 1,47-1,54 g/sm<sup>3</sup> bo'lgan tuproqlarda 42-43 foizni tashkil qilib, qoniqarsiz hisoblandi. Qo'riq va lalmi tog' jigarrang tuproqlarning tepa qatlamlarida g'ovaklik juda yuqori bo'lib 53-61 foizni, lalmi to'q tusli bo'z va sug'oriladigan tipik bo'z, bo'z-o'tloqi tuproqlarda ham g'ovaklik yuqori bo'lib, 50-56 foizni tashkil etdi. Tuproq turlari bo'yicha umumiy g'ovakligi yuqori qatlamda katta bo'lib, pastga qarab kamaydi, ayniqsa haydov ostki qatlamida. Umumiy g'ovaklikni pastga qarab kamayib borishi tuproq zichligining oshishi va suvga

chidamli agregatlarning miqdorini kamayishi hamda tuproqda ishlov beruvchi mexanizmlar ta'sirida sodir bo'ladi. Tapa qatlamlarda umumiy g'ovaklikni yuqori bo'lishi tuproqlarga ishlov berish va agregatlar hosil bo'lish jarayoni bilan bog'liq.

Dissertatsiyaning 4.3. §. «Tuproqlarning suv xossalari va ularni yaxshilash yo'llari» deb nomlangan bo'limida «Tuproqlarning maksimal gigroskopik namligi» (MG), ularning granulometrik tarkibiga, singdirish sig'imiga, minerologik tarkibiga, ulardagi organik moddalar, suvda eruvchi tuzlar miqdoriga va tarkibiga, nihoyat tuproqarning zichligiga bog'liq (2-jadval). Chirchiq havzasining lalmi to'q tusli bo'z tuproqda 3,5-4,0%, sug'oriladigan tipik bo'z tuproqda 4,2-4,5%, bo'z-o'tloqi tuproqlarda MG 4,2-4,5 foizni tashkil qiladi.

2-jadval

### Chirchiq havzasi tuproqlarining maksimal gigroskopiklik (MG) va so'lish namligi (SN), %

Kesma №	Kesma chuqur ligi, sm	MG	SN	Kesma №	Kesma chuqur ligi, sm		MG	SN
Parkent tumani «Zarkent» lalmi to'q tusli bo'z tuproq				Parkent tumani «Gulbog'» massivi sug'oriladigan tipik bo'z tuproq				
53	0-30	3,80	5,70	45	0-27		4,52	6,78
	30-45	3,47	5,20		27-46		4,47	6,70
	45-87	3,82	5,73		46-77		4,27	6,40
	87-110	4,02	6,03		77-110		4,28	6,42
	110-179	4,20	6,30		110-157		4,16	6,24
Qibray tumani «Qibray» massivi sug'oriladigan bo'z-o'tloqi tuproq				Chinoz tumani Y.Oxunboboyev nomli massiv sug'oriladigan o'tloqi tuproq				
9	0-28	4,35	6,52	30	0-43		3,09	4,63
	44-71	4,69	7,03		43-60		2,99	4,48
	71-106	4,42	6,63		60-110		1,45	2,18
	106-143	4,10	6,15		110-155		2,16	3,24
	143-200	3,76	5,64		155-200		2,25	3,37

Tuproqlarda granulometrik tarkibi yengil hamda chirindi miqdorining kamligi sababli MG ko'rsatkichi kam bo'lib, uning ko'rsatkichlari kesma bo'ylab 1,5 dan 3,1 foizgacha tebrandi. Chirchiq havzasi MG namlikni bunday o'zgarishiga bir tomondan granulometrik tarkib sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan suvda eruvchi tuzlar miqdori sababchidir.

«O'simliklarning so'lish namligi» (SN) Chirchiq havzasida SN yuqori miqdori sug'oriladigan bo'z-o'tloqi tuproqlarda 5,6-7,0 foizni tashkil etdi. SN tekshirilgan hamma tuproqlarga nisbatan haydov qatlamida eng yuqori ko'rsatkichga ega, ayniqsa chirindiga va mayda zarrachalarga boy qatlamlarda SN ko'rsatkichlarining pastga tomon o'zgarishi granulometrik tarkibni, zichlikni va tuzlar miqdorini bir xil emasligi bilan bog'liq. Shuni ta'kidlash zarurki, tog' tuproqlarida SN yuqori bo'lib, buning boisi granulometrik tarkibni og'irlashishidir. O'simliklarning so'lish namligini tuproq zichligi bilan

bog'liqligi ma'lumotlari bo'yicha, tuproq qancha zich bo'lsa, o'simlik namlikni shu darajada qiyin o'zlashtiradi. (2-jadval).

«Dala nam sig'imi» (DNS) - olingan ma'lumotlar ko'rsatishicha (3-jadval) Chirchiq havzasining lalmi to'q tusli bo'z (22,6-24,6 %), sug'oriladigan tipik bo'z (26,9-28,8 %), bo'z-o'tloqi (24,5-28,8 %) va o'tloqi tuproqlarda (22,2-23,1%) dala nam sig'imi granulometrik tarkibi va chirindi miqdoriga qarab o'zgarishi aniqlandi. Tuproqlarining yuqori metrli qatlamida dala nam sig'imi kattaligi o'rtacha 25-29 foizni tashkil qilsa, o'rta va yengil qumoqli sho'rланmagan tuproqlar uchun 22-24 foizga teng.

3-jadval

**Chirchiq havzasi tuproqlarining dala (DNS), kapillyar(KNS) va to'la nam sig'imi (TNS), %**

№ Kesma	Chuqurlik, sm	DNS	KNS	TNS	№ Kesma	Chuqurlik, sm	DNS	KNS	TNS
Qibray tumani «Qibray» massivi sug'oriladigan bo'z-o'tloqi tuproq					Parkent tumani «Zarkent» lalmi to'q tusli bo'z tuproq				
9	0-15	25,56	32,08	37,14	53	0-15	24,56	35,24	41,26
	15-30	24,46	30,84	36,58		15-30	23,42	34,48	40,97
	30-45	28,16	33,87	38,23		30-45	22,56	33,56	39,64
	45-60	29,19	35,46	40,58		45-60	24,63	35,10	41,32
	60-75	28,76	34,11	39,42		60-75	23,52	34,76	40,88
	75-90	27,10	32,47	37,98		75-90	23,15	34,20	40,30
	90-105	26,92	32,25	37,14		90-105	22,78	33,64	39,72
Chinoz tumani Y.Oxunboboyev nomli massiv sug'oriladigan o'tloqi tuproq					Zangi ota tumani «Ittifoq» massivi sug'oriladigan tipik bo'z tuproq				
30	0-15	22,41	31,57	36,84	1	0-15	28,10	32,05	37,38
	15-30	23,10	32,18	37,35		15-30	27,31	30,84	36,12
	30-45	22,56	31,08	36,81		30-45	27,43	33,63	39,96
	45-60	22,48	31,16	36,24		45-60	29,19	35,46	40,58
